Misol, shaharlarning o'ta keskin muammosi - bu atrof-muhitning maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi. Muammo: barcha chiqindilarni to'liq qayta ishslashga qanday erishish mumkin? Bu yerda - va ekologiya, va kimyo, va biologiya, va sotsiologiya va fizika. Men taxminiy loyiha mavzularini taklif qilaman: kimyoning rivojlanish tarixi, kimyoviy ishlab chiqarish, kundalik hayotda kimyo, kimyo va salomatlik, buyuk kimyogarlarning hayoti va faoliyati, kimyo va ekologiya va boshqalar.

XULOSA O'qitishning interfaol shakllari va usullari muvaffaqiyatga erishish holatlarini



yaratishga yordam beradi, bu talabalar uchun kuchli rag'batdir. O'quvchilarni hayratga soladigan, qiziquvchanlikka, o'rganilayotgan biron bir materialga bo'lgan ishtiyoqiga olib keladigan reproduktiv va ijodiy usullarning oqilona kombinatsiyasi darsda muvaffaqiyat kalitidir. Shunday qilib, o'qitishning interfaol usullaridan foydalangan holda o'quvchilarning malakasini oshiramiz, ijodiy aqliyati rivojlantiramiz, qobiliyatlarni faollashtiramiz, fan bo'yicha o'qitish samaradorligini oshiramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.A.Parpiyev, X.R.Raximov, A.G.Muftaxov. “Anorganik kimyo nazariy asoslari”. Toshkent. “O'zbekiston”. 2000 у
2. Кукушкин Ю.Н. «Химия координационных соединений» Высшая школа, 1985. — 457 с.
3. Киселев Ю.М., Добрынина Н.А. «Химия координационных соединений» Академия, 2007. — 352 с.



## ABSORBSIYA USULIDA SULFAT KISLOTA OLİSH TEKNOLOGIYASINI TATBIQ ETISH

**Murodova Maftuna Ahadovna**  
 Buxoro Muhandislik texnologiya instituti  
 Noorganik moddalar kimyoviy  
 texnologiyasi yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada absorbsiya usulida sulfat kislota olish texnologiyasining tatbiq etish haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** absorbsiya, gazlarni quritish, absorbent, sulfat kislota olish.

Gaz yoki bug` aralashmasi tarkibidagi bir yoki bir necha komponentning suyuq yutuvchi moddada tanlab yutilish jarayoni absorbsiya deb ataladi. Yutuvchi suyuqlik absorbent (yoki sorbent) deyiladi. Teskari jarayon, ya'ni yutilgan komponentlarning suyuq fazadan ajralib chiqishi desorbsiya deb ataladi. Absorbsiya jarayoni texnologik gazlarni ajratish va sanoatdan chiqarib yuboriladigan gazlarni tozalashda keng qo'llaniladi.

Absorbтив va absorbentlarning o'zaro ta'siriga qarab, absorbsiya jarayoni ikkiga bo'linadi: fizik absorbsiya va kimyoviy absorbsiya.


Fizik absorbsiya jarayonida gazning suyuqlik bilan yutilishi paytida kimyoviy reaksiya yuz bermaydi, ya'ni kimyoviy birikma hosil bo'lmaydi. Agar suyuqlik bilan yutilayotgan gaz kimyoviy reaksiyaga kirishsa, bunday karayon kimyoviy absorbsiya deyiladi.

Ma'lumki, fizik absorbsiya ko'pincha qaytar jarayon bo'lgani sababli, ya'ni suyuqlikka yutilgan gazni ajratib olish imkonи bo'ladi. Bunday jarayon desorbsiya deb nomlanadi. Absorbsiya va desorbsiya jarayonlarini uzlusiz ravishda tashkil etish, yutilgan gazni sof holda ajratib olish va absorbentni ko'p marta ishlatish imkonini beradi.

Absorbsiya jarayoni sanoat korxonalarida ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Masalan:

- uglevodorodli gazlarni ajratish,
- sulfatlarni ajratib olishda,
- azotlarni ajratib olishda,
- xloridlarni ajratib olishda,
- kislotalar olishda
- ammiakli suvlarni olishda,
- gaz aralashmalaridan qimmatbaho komponentlarni ajratish
- boshqa hollarda keng miqyosda ishlatiladi.

Absorbsiya jarayoni fazalarni ajratuvchi yuzada ro'y beradi. Shu sababdan absorberlarda iloji boricha gaz va suyuqlik o'rtasidagi kontakt (to'qnashuv) yuzasini ko'paytirish zarur. Fazalarning to'qnashuv yuzasini hosil qilish usuliga ko'ra, absorberlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi: 1) plyonkali; 2) nasadkali; 3) tarelkali; 4) suyuqlikni sochib beruvchi.



Rasm. Tarelkali absorber



XIX asrning boshlarida  $\text{SO}_2$  ni platina kattalizatori ishtirokida  $\text{SO}_3$  ga oksidlash mumkinligi aniqlandi. XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida bu usul kontakt (gazning kattalizator bilan to'qnashuviga asoslanganligi uchun) usuli deb atalib, sanoatda qo'llanila boshlandi.

Nitrozali usulida olinadigan sulfat kislotaning sifati pastligi, 75% dan yuqori kontsentratsiyali kislota olib bo'lmasligi,  $\text{NO}_2$ ,  $\text{SO}_2$ ,  $\text{SO}_3$  kabi gazlarning atmosferaga chaqirib yuborilishi tufayli atmosferaning zaharlanishi kabi kamchiliklarni bu usulni kontakt usuli tomonidan siqib chiqarishiga sabab bo'lidi. Sobiq SSSR da 1975 yillardan boshlab faqat kontakt usuli bilan sulfat kislota ishlab chiqarish bo'lmalari qurilmoqda. Hozirgi paytda ishlab chiqarayotgan sulfat kislotaning 95% ga yaqini kontakt usulida ishlab chaqirilmoqda.

Sulfat kislota qanday usulda ishlab chiqarilishidan qat'iy nazar birinchi bosqich oltingugurtli ashyolarni kuydirib  $\text{SO}_2$  olishdir. So'ngra uni tozalab  $\text{SO}_3$  gacha oksidlantiriladi va suvgaga yuttirib kislotaga aylantiriladi.

Sulfat kislotaning aktivligi va nisbatan arzonligi uning qo'llanish sohalari juda kengayib ketishiga olib keldi. Sulfat kislota yoki uning hosilalari qo'llanilmaydigan biror bir sohani topish qiyin. Anorganik moddalar ichida eng ko'p ishlab chiqariladigan sulfat kislotadir.

Sulfat kislota ko'p miqdorda o'g'it sanoatida: ammoniy sulfat, superfosfat va boshqalarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. Yana yirik ishlatiladigan sohalari: neft mahsulotlarini tozalash, toshko'mir smolasini qayta ishslash, ko'p kislotalar (masalan, ortofosfat, sirka, ftorid va boshqalar) va tuzlar olish, rangli va nodir metallar ishlab chiqarish, po'latdan yasalgan buyumlarni bo'yash, nikellash, xromlashdan oldin ishlov berish, lak va bo'yoglar olish dori-darmonlar olish va boshqalardir.

Sulfat kislota turli organik sintezlarda ishlatiladi. Undan etanol va boshqa spirtlar, ba'zi efirlar, sintetik yuvish vositalari, pestitsidlar, bo'yoqlar, saxarin, plastmassalar olinadi. Uning tuzlari sun'iy ipak ishlab chiqarishda, to'qimachilik sanoatida, tola yoki gazlamalarni bo'yashdan oldin ishlov berishda ishlatiladi. Oziq-ovqat sanoatida kraxmal, patoka va boshqa mahsulotlarni olishda ham ishlatiladi. U yana akkumulyator tayyorlashda gazlarni quritishda, kislotalarni kontsentrlashda, nitrollash reaktsiyalarida, portlovchi moddalar ishlab chiqarishda, ionitlarni regeneratsiyalashda va boshqa ko'pgina sohalarda ishlatiladi.

Sulfat kislota Rossiyada 1913 yilda 0,15 million tonna, ishlab chiqarilgan bo'lsa 1990 yilga kelib 25 million tonnaga etkazildi. O'zbekistonda sulfat kislota ishlab chiqarish 1941 yil urushiidan keyin boshlandi va 1950 yilda 73 ming tonna ishlab chiqarildi. 1990 yilga kelib esa bu ko'rsatgich 2.5 million tonnaga etqazildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 4ta sulfat kislota ishlab chiqarish korxonalari: Chirchiqelektroximprom ishlab chiqarish birlashmasi, Samarqand (1954yil), Oltin topgan (1965 yil) va Olmaliq (1980yil) kimyo zavodlari ishlab turibdi. O'zbekiston sulfat kislotani ishlab chiqarish bo'yicha 1985 yildayoq jahonning ko'pgina mamlakatlaridan, masalan, Bolgariya, Vengriya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugosloviya davlatlaridan o'zib ketdi.

Absorbsiya usulida sulfat kislota olish hozirgi kunda yangi texnologiya bo'lib, bu usul orqali gaz moddalarning quritish orqali olinadi. Absorbsiya usuli juda qulay usul bo'lib, sulfolash, nitrolash usullaridan farq qiladi. Hozirgi kunda absorbsiya usuli juda ko'plab sohalarda, turli moddalarni olishda samarali usul bo'lib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Parpiev, H.R.Rahimov, A.G.Muftaxov. Anorganik kimyo nazariy asoslari. Toshkent. «O'zbekiston». 2000 –yil
2. Yu.T.Toshpilatov, SH.E.Ishoqov. Anorganik kimyo. Toshkent. «O'qituvchi». 1992 y.
3. Q.Ashmerov, A.Jalilov, R.Sayfutdinov. Umumiyy va anorganik kimyo. Toshkent. «O'zbekiston».2003 y.
4. S.Masharipov, I.Tirkashev. «KIMYO». Toshkent. O'qituvchi 2003 yil.
5. «Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari».Toshkent.O'qituvchi 2002yil 156 bet



## KIMYONI O'QITISHDA YANGI PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLAR

**Ro'ziboyeva Farog'at Mirzaboyevna**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

5- maktab kimyo fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kimyoni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** rolli o'yin, “Modifikatsiyalashgan ta'lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Taqnidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o'rghanish va tahlil qilish”, “Har kim, har kimga o'rgatadi”, “Nuqtai nazaring bo'lsin”, “Multimedia”

Interfaol dars shunday tashkil etilishi kerak-ki, bunda barcha o'quvchilar faollashishlari zarur. O'qituvchi bu jarayoning tashkilotchisi, raxbari va nazoratchisi bo'lishi kerak.

**Interfaol usullar qanday nomlanmasin, quyidagi asosiy 7 xil yo'nalishda bo'ladi.**

1. **Rolli o'yin** – mashq orqali o'zaro munosabatlar bilan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlanadi, darsni jonlantiriladi.

2. **Ishbilarmo o'yini** – hayotiy ko'nikmalarini mustahkamlash va rivojlanishiga yordam beradi.

3. **Juftliklar va guruqlar** – hamkorlikda o'zaro yordam bilan birga ishlash.

4. **Aqliy hujum** – qisqa muddat ichida muammoli savollarga javoblarning turli variantlarini olishga imkon beradi.

5. **Savollar** – o'quvchilarga fikrlash jarayonini rivojlantiradi.

6. **Umumiy diskussiya (bahs)** – o'qitish jarayoni faollashadi, tinglash, savol berish, bir savolga necha javob bor ekanligini tushunish, o'z nuqtai nazarini isbot-dalillar bilan himoya qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

7. **“Umumiy g'ala-g'ovur”** – bu o'quvchilardagi charchoq, zo'riqish, umumiy holatga ta'sir etuvchi hislarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu darsga taaluqli bo'lishi shart emas.

Yuqori metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslangan. Ular orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularga erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarini boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Agar interfaol usullarni darsga qo'llasak, lekin o'quv sikliga sola bilmasak, u o'z natijasini bermaydi va oddiy bir o'yin yoki mashqligicha qolaveradi.

O'quv sikli esa, albatta, mashg'ulotdan so'ng muhokama paytida kechadi.

Savollar ketligi ham xuddi bosqichlarga mos bo'lishi kerak. Masalan:

1. Mashg'ulot sizga yoqadimi? Guruhda o'zingizni qanday his qildingiz?

2. Nima bo'lib o'tdi? Qiyinchiliklar bo'ldimi? Nimalarni ko'rdingiz yoki sezdingiz? (faktlar bo'yicha)

3. Guruhda hamma a'zolar orasida bamaslahat ish olib borildimi? G'alabaga nima sabab bo'ldi? Guruhlardan qaysi birining strategiyasi yaxshi natija berdi?

4. O'yin mohiyatini qanday tushundingiz? Guruhlardan qaysi birining strategiyasi yaxshi natija berdi?

5. Shu narsani hayotga tadbiq qilsa bo'ladimi? O'yin natijasidan qanday xulosaga keldingiz?

Bu fikrlarim, albatta, global ta'limning “Bolaga do'stona munosabatdagi maktabni yaratish” dasturi bilan tanishganim natijasidir. Darhaqiqat, biz qo'llayotgan usullarimiz mazmun-mohiyatini tusunib olsakkina, samarali natijaga erishamiz, shundagina o'quvchilar o'qishdan zerikmaydilar.

O'qitish jarayonida noan'aviy ta'lim usullardan: “Konferensiya darsi”, “Seminar darsi”, “Aralash darslar”, “O'yinchoqlar yordamida dars o'tish”, “Kasbga bog'lab dars o'tish”, “Badiiy adabiyotlarni o'rghanish va tahlil qilish”, “Evrika” (o'ylab top), ta'limning qiziqarli, faol usullaridan: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o'yinlar”, “Sahna ko'rinishi”, “Krosvordlar yechish”, “Zakovat savollari”, “Test-sinov” topshiriqlari, “Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish”, “Sinkveyn o'yinlari”; shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari: “Modifikatsiyalashgan ta'lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Taqnidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”,



“Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o’rganish va tahlil qilish”, “Har kim, har kimga o’rgatadi”, “Nuqtai nazaring bo’lsin”, “Multimedia” va boshqalarni qo’llash muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A.Parpiyev, X.R.Raximov, A.G.Muftaxov. “Anorganik kimyo nazariy asoslari”. Toshkent. “O’zbekiston”. 2000 у
2. Кукушкин Ю.Н. «Химия координационных соединений» Высшая школа, 1985. — 457 с.
3. Киселев Ю.М., Добрынина Н.А. «Химия координационных соединений» Академия, 2007. — 352 с.



## YANGI DORIVOR VOSITALAR YARATISH VA TAXLIL QILISH.

Sadullaeva Marhabo

Xorazm viloyati Shovot tumani  
26 – maktab kimyo fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yangi dorivor vositalar yaratish va tahlil qilish haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** dorivor vositalar, farmatsevtik, farmakologik, organik kimyo

Yangi dorivor vositalar yaratish organik va farmatsevtik kimyo sohasidagi yutuqlar, fizik-kimyoviy usullardan foydalanish, sintetik va tabiiy birikmalarning biotexnologik va texnologik tadqiq qilish hisobiga amalga oshirildi.

Yo’naltilgan izlash nazariyasining umumiyligi poydevori sifatida farmakologik ta’sir va fizik o’ziga xosliklar orasidagi bog’liqliklarni ko’rsatish mumkin.

Hozirgi kunda yangi dorivor moddalar izlash quyidagi asosiy yo’nalishlarda amalga oshirilmoqda.

1. Kimyoviy yo’l bilan olingan turli moddalarning u yoki bu tudagi farmakologik faolligini empirik o’rganish. Bu tadqiqot asosida “tekshirish va xatoliklar” metodi yotadi, bunda farmakologlar mavjud bir moddani oladilar va farmakologik metodikalar to’plami yordamida ularni u yoki bu farmakologik guruhga mansubligini aniqlaydilar. Keyin ular ichidan eng faollarini tanlaydilar va mavjud dorivor vositalarga nisbatan farmakologik faolligi va tokisliliklagini aniqlaydilar.

2. Ikkinci yo’nalishda bir turdagiligi farmakologik faollikka ega birikmalar tanlanadi. Ushbu yo’nalish dorivor vositalarning yo’naltilgan tanlovi deb nom oldi.

Ushbu sistemaning afzalligi farmakologik faol moddalarni tez tanlashda, kamchiligi esa juda qimmat bo’lgan boshqa farmakologik faolliklar turlarini aniqlamasligi.

3. Izlashning keyingi yo’nalishi – mavjud dorivor vositalar strukturalarini modifikatsiyalash. Yangi dorivor vositalar izlashning ushbu usuli hozirda juda keng tarqalgan hisoblanadi. Kimyogarsintetiklar dastlabki molekuladagi bir radikalni boshqasiga almashlaydilar, yoki dastlabki molekulaga boshqa kimyoviy elementlar kiritadilar. Ushbu usul dorivor vositaning faolligini oshirishga, tanlab ta’sir qiluvchan bo’lishiga olib keladi, bundan tashqari uning ikkilamchi ta’siri va toksikligini kamaytiradi.

Dorivor vositalarni maqsadli sintezi oldindan belgilangan farmatsevtik xossaga ega moddalarni izlashni bildiradi. Bashorat qilinayotgan faollikka ega yangi strukturalar ma’lum organ yoki to’qimaga ta’sir qiluvechi moddalar topilgan kimyoviy birikmalari sinfi ichidan izlanadi.

Izlanayotgan moddaning asosiy skeleti sifatida organizmning funktsiyasini boshqarishda ishtirok etayotgan tabiiy moddalarning sinflari ham asos bo’lishi mumkin. Farmakologik moddalarning maqsadli sintezini farmakologik faolligi bilan strukturasiini orasida bog’liqlik ma’lum bo’limgan kimyoviy birikmalarning yangi sinflarida olib borish qiyin kechadi. Bu xolda modda yoki elementning foydasini haqida ma’lumotlar zarur.

Keyinchalik moddaning asosiy skeletiga ushbu moddani suv va lipidlarda erishiga yordam beradigan radikallar qo’shib boradi. Sintez qilinayotgan strukturani ham suvda ham yog’larda eruvchan qilish kerak, chunki bunda u qonga oson so’rilib, undan gemato to’qimali to’siq orqali to’qima va hujayralarga o’tadi va keyinchalik hujayra membranasini bilan bog’lanadi yoki undan o’tib molekulaning yadrosi yoki tsitozoliga ulanadi.

Dorivor moddalarning maqsadli sintezi omadli bo’lishi uchun, topilgan moddaning o’lchami, shakli, fazoviy joylashishi, elektron-proton xossalari va qator fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari rostlanishi zarur bo’lgan tirik strukturaga mos kelishi kerak. Moddalarning maqsadli sintezi nafaqat amaliy maqsadni ko’zlaydi, balki tirik jarayonlarning umumiy va xususiy bilish metodlaridan biri hisoblanadi. Nazariy umumlashtirishlarni amalga oshirish uchun molekulaning barcha fizik-kimyoviy xarakteristikalarini o’rganish va bir faollikni ikkinchi turga o’tishi uchun qanday o’zgarishlar zarurligini aniqlash kerak.

Kombinatsiyali preparatlar yaratish yangi dorivor vositalar izlashning samarali yo’llaridan biri hisoblanadi. Ko’p komponentli dorivor preparatlar tuzish printsiplari turlicha bo’ladi va farmakologiya metodologiyasi bilan birgalikda o’zgarib boradi. Kombinatsiyali vositalar yaratishning asosiy printsiplari va qoidalarini tuzilgan.

Ko’pincha kombinatsiyali vositalarga kasallik etiologiyasi va kasallik patogenezining asosiy



bosqichlariga ta’sir ko’rsatuvchi dorivor moddalar kiritiladi. Agarda komponentlarning o’zaro xossalarini kuchaytirish xususiyati bo’lsa, kombinatsiyali vositaga odatda dorivor moddalar oz yoki o’rtacha miqdorda qo’shiladi. Ko’rsatilgan ratsional printsiplarga asoslangan xolda tuzilgan kombinirlangan vositalar boshqalarda etarlicha davolovchi ta’siri va ikkilamchi ta’sirlar yo’qligi bilan farqlanadi. Ularning bunday xossalariga sabab ayrim ingredientlarning oz miqdorda qo’shilganligidir. Oz miqdorlarning yana bir afzalligi, ular organizmning tabiiy himoya yoki kompensator mexanizmlarini buzmaydilar.

Kombinatsiyali preparatlar tayyorlashda asosiy komponentning salbiy ta’sirini kamaytiruvchi qo’shimchalar qo’shish ham qo’llaniladi. Kombinatsiyali preparatlar tayyorlashda dorivor moddaning yoqimsiz ta’mi, hidi kabi ko’rsatkichlarini kamaytiruvchi korrigirlovchi moddalar yoki dorivor moddaning dorivor shakldan chiqish va qonga so’rilish tezligini oshiruvchi moddalar qo’shiladi.

Kombinatsiyali vositalarni ratsional tuzish farmakoterapevtik effektni maqsadli oshirishga yoki dorivor vositalarning organizmga salbiy ta’sirini kamaytirishga olib keladi.

Dorivor vositalarni kombinatsiyalashda ayrim komponentlar o’zaro fizik-kimyoviy, farmakodinamik va farmakokinet xossalariga ko’ra mos kelishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кукес В. Г., Стародубцева А. К. Фармакология и фармакотерапия. - М.: ГЭОТАР – МЕД, 2004.
2. Беликов В. Г. Фармацевтическая химия. – М.: Высшая школа, 1985
3. Харкевич Д. А. Фармакология, четвертое издание, Москва, 1993.



**TARKIBIDA AZOT, OLTINGUGURT, KISLOROD TUTGAN LIGANDLAR  
ASOSIDAGI KOORDINATSION BIRIKMALAR SINTEZI**

**Sulaymonova Iroda Xamza qizi**  
Buxoro muhandislik texnologiya instituti  
Noorganik moddalar kimyoviy  
texnologiyalar fakulteti magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarkibida azot, oltингугурт, kislород tutgan ligandlar asosidagi koordinatsion birikmalar haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** ligandlar, kompleks birikmalar, akseptor, elektroneytral.

**Koordinatsion birikmalar**, kompleks birikmalar — markaziy atom (yoki ion) va u bilan bog‘langan molekula yoki ionlar — ligandlardan tashqil topgan komplekslar. Markaziy atom (kompleks hosil qiluvchi), odatda, akseptor, ligandlar esa elektronlarning donorlari bo‘lib, kompleks hosil bo‘lganda ular orasida donor-akseptor yoki koordinatsion bog‘lanish vujudga keladi. Kompleks elektroneytral yoki noelektrolit, musbat (kompleks kation) yoki manfiy (kompleks anion) zaryadli bo‘lishi mumkin. Maasalan,  $[Cu(NH_4)_4]^{2+}$ ,  $[Fe(CN)_6]^-$ . Agar eritma yoki gaz holatidagi Koordinatsion birikmalar bir xil ligandlardan tuzilgan bo‘lsa, kompleksdagi barcha bog‘lar bir xil, agar har xil ligandlardan iborat bo‘lsa, bog‘lar tavsifi ligandlar xossalariiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan,  $[W(CH_3CN)(O)F_4]$  kompleksida donorakseptor, oddiy kovalent bog‘lar va qo’sh bog‘ hosil bo‘ladi.

Odatda, oddiy kimyoviy birikmalarning o‘zaro birikishidan murakkabroq Koordinatsion birikmalar vujudga keladi. Masalan, temir va kaliyning sianid tuzlari bir-biri bilan qo’shilish, Koordinatsion birikmalar — kaliy ferrotsianidni hosil qiladi:  $Fe(CN)_6 + 4KCN = K_4[Fe(CN)_6]$ .

Kompleks hosil qiluvchi markaziy atom (yuqoridagi misolda —  $G^e$ ) Koordinatsion birikmalar yadrosi (kompleks)ni, u bilan bog‘langan (koordinatsiyalangan) molekulalar yoki ionlar — ligandlar (yuqoridagi misolda — kislota qoldig‘i CN) kompleksning ichki sfera sini tashkil etadi. Faqat markaziy atom bilan ligandlardan iborat Koordinatsion birikmalar ham bor, masalan, metallarning karbonillari  $Ti(CO)_7$ ,  $Cr(CO)_6$ ,  $Fe(CO)_5$  va boshqa Markaziy atom bilan bevosita bog‘lanmagan ionlar kompleks tarkibiga kirsa, ular kompleksning tashqi sferasida bo‘ladi. Kationlar, mas,  $K_4[G^e(S1M)_6]$  dagi  $K^+$  ham, anionlar, mas,  $[Cu(NH_3)_4]SO_4$  dagi  $SO_4^{2-}$  ham tashqi sfera ionlaridir. Koordinatsion birikmalar formulasini yozganda tashqi sfera ionlari kvadrat qavsdan tashqariga chiqariladi.

Markaziy atom bilan bevosita bog‘langan ionlar yoki molekulalar soni uning koordinatsion soni (Koordinatsion birikmalar) deb ataladi. Mas,  $K_4[Fe(CN)_6]$ ,  $Ti(CO)_7$  va  $[Cu(NH_3)_4]SO_4$  da markaziy atomlarning Koordinatsion birikmalar 6, 7 va 4 ga teng .

D.I.Mendeleyev davriy sistemasining katta davrlari o‘rtasidagi (oraliq) elementlar (Ti, V, Sg, Mn, Fe, So, Ni, Si, Zn, Zr, Nb, Mo, Tc, Ru, Rh, Pd, Ag, Cd, Hf, Ta, W, Re, Os, Ir, Pt, Ai, Hg, nodir yer elementlari, aktinoidlar), ba’zi metallmaslar, mas, V, R, Si ko‘pincha kompleks birikma hosil qiluvchi markaziy atomlar bo‘lib, kislotalarning anionlari ( $G^-, Cl^-$ , Br,  $S^{2-}$ ,  $WO_4^{2-}$ ,  $RO_4^{3-}$  va boshqalar), shuningdek, O, N, P, S, Se, S atomlariga ega bo‘lgan neytral organik va anorganik molekulalar hamda radikallar ligandlar bo‘lib qatnashishi mumkin. Ichki sferasida kislotalarning anionlari bor Koordinatsion birikmalar (atsidokomplekslar) anorganik komplekslarga yaqqol misol bo‘la oladi. Eng ko‘p tarqalgan ligand — suvda oddiy tuzlar eriganda akvokomplekslar hosil bo‘ladi, masalan:



Kristall akvokomplekslar kristallogidratlar deb ataladi. Tuzlar turli organik va anorganik suyuqliklarda eriganda har xil solvato-komplekslar (kristallosvvatlar) hosil bo‘ladi. Ammiak biriktirish mahsuli — ammiakatlar, mas,  $[Ni(NH_3)JCl_6]$ ; spirt biriktirish mahsuli — alkogolyatlar (qarang Alkogolyat va feonolyatlar), efir biriktirish mahsuli — efiratlar va h.k. kristallosvvatlarga kiradi. Murakkab molekulalar markaziy atomga kislород (suv, spirt, efir va boshqalar), azot (ammiaq, aminlar), fosfor ( $PCl_3$ , fosfin hosilalari), uglerod va boshqa elementlarning atomlari orqali birikadi. Ko‘pincha, ligandlar o‘z atomlaridan bir nechasi bilan markaziy atomga birikadi, ular polidentat ligandlar deb ataladi.

Ba’zi bidetant ligandlar 1 ta yoki 2 ta markaziy atomlar bilan birikib, 4, 5, 6 a’zoli halqalar hosil



qiladi. Bunday Koordinatsion birikmalar xelat birikmalar deb ataladi. Koordinatsion birikmalar eritma, kristall va gaz holatida bo‘ladi. Kimyobiol. jarayonlarida ham Koordinatsion birikmalarning o‘rnini muhim. Xlorofill, gemoglobin, enzimlar Koordinatsion birikmalar sinfiga mansub. Ko‘pgina dorivor moddalar (koamid, ferramid va boshqalar), kobalt, temir ionlarining nikotinamid bilan birikmasi Koordinatsion birikmalar hisoblanadi.

Koordinatsion birikmalarning nomlanishi. IYUPAK sistemasiga binoan, Koordinatsion birikmalar formulasini yozishda avvalo markaziy atom, so‘ngra ionli va neytral ligandlar ko‘rsatiladi. Ichki va tashqi sferalar kvadrat qavs bilan ajratiladi. Masalan,  $[Cr(H_2O)_6](SO_4)_3$ ,  $[Co(NO_3)(NH_3)_5]Cl_2$ . Markaziy atomning zaryadi qavs ichida rim raqami bilan ifodalanadi:  $K_2[BrPd_6]$  — kaliy geksamintemir (IV),  $[Fe(NH_3)_6]Cl_2$  — geksamintemir (II) xlorid.

Kompleks anionlar oxiriga "at", anionli ligandlarga esa "o" qo‘sishimchasi qo‘shiladi:  $Fe_3[Fe(CN)_6]_2$  — temir (II) geksamintemir (III),  $K_2[PdCl_4]$  — kaliy tetraxloroplatinat. Agar Koordinatsion birikmalar tarkibida neytral ligandlar bo‘lsa:  $H_2O$  (akva),  $NH_3$  (ammin),  $NO$  (nitrozil),  $SO$  (karbonil) so‘zlari qo‘shiladi. Mas,  $[Al(OH)(H_2O)_5]^{2+}$  — pentaakkvagidroksoalyuminiy (II) — ion,  $[Hg(NH_3)_2]Cl_2$  — diaminsimob (II) — xlorid,  $K[Co(CN)(CO)_2(NO)]$  — kaliy dikarbonilnitrozilsianokobalt (I). Koordinatsion birikmalar tarkibiga kirgan ligand o‘rnida to‘yinmagan uglevodorodlar bo‘lsa, bunday birikmalarni nomlashda ligandning oldiga T| (eta) harfi, ko‘p yadroli Koordinatsion birikmalarda ligand ko‘prik vazifasini bajarsa, ligand oldiga i (myu) harfi qo‘yiladi. CIK.b. platina metallar, oltin, kumush, nikel, kobalt, misni ajratib olish va tozalash, nodir yer elementlari, ishkriy metallarni ajratish va boshqa bir qancha texnologik jarayonlarda, shuningdek, kimyoviy analizda keng qo‘llaniladi. Nafas, fotosintez, biologik oksidlanish, fermentativ kataliz va boshqa zarur biologik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi.

U yoki bu elementning koordinatsion birikma hosil qilish qobiliyati o‘sha element atomining sirtqi elektron qavati tuzilishiga va uning davriy sistemadagi o‘rniga bog‘liq bo‘lib, koordinatsion birikma hosil qiluvchilar jumlasiga asosan sirtqi qavatda yetarli darajada bo‘sh orbitallari bo‘lgan metall ionlar kiradi. Koordinatsion birikma hosil qiluvchi zarracha elektron juftining akseptori vazifasini bajaradi. Agar markaziy atom kimyoviy bog‘lanishda o‘zining bo‘sh s- orbitallari bilan ishtirok etsa, bu holda faqat  $\sigma$  (sigma) — bog‘lanish, agar bo‘sh r – orbitallari ham qatnashsa,  $\sigma$ - va  $\pi$ - bog‘lanishlar yuzaga keladi (u r-, d- yoki f – orbitallari bilan ishtirok etganida ham  $\sigma$ - va  $\pi$ - bog‘lanishlar kelib chiqadi).

### Foydalanimanligi adabiyotlar

1. N.A.Parpiyev, X.R.Raximov, A.G.Muftaxov. “Anorganik kimyo nazariy asoslari”. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2000 у
2. Кукушкин Ю.Н. «Химия координационных соединений» Высшая школа, 1985. — 457 с.
3. Киселев Ю.М., Добрынина Н.А. «Химия координационных соединений» Академия, 2007. — 352 с.



## DIKAIN ASOSIDA YANGI MOLEKULYAR STRUKTURALAR YARATISH

**Toshova Gulhayo Eshonqulovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani

24 – maktab kimyo fani o’qituvchisi

**Rajabova Baxtigul Bahodirovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani

24 – maktab biologiya fani o’qituvchisi


**Annotatsiya:** ushbu maqolada biologiya va kimyo sohalarida dikain asosida yangi molekulyar strukturalar yaratish haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** dikain, potensial, bioretseptor, sintetik dorivor vositalar.

Oxirgi vaqtida kompyuter modellash usullari yangi sintetik dorivor moddalar yaratish texnologiyalariga keng kirib kelmoqda. Ushbu yondashuv dorivor birikma molekulasining stexiometrik o’ziga xosliklarni aniqlashga, ayrim atomlar orasidagi masofani o’lchashga, biofaollik potentsialini, bioretseptor qism bilan ta’sirlashuv komplementarligrini aniqlashga imkon beradi. Bunday usulda olinadigan ma’lumotlar molekulyar darajadagi parametrlerga ega bo’lgan biofaol molekulalarni sintez qilishga imkon beradi, bu esa dorivor moddalarni an’anaviy usullarda izlash uchun sarflanadigan vaqt, material va kuchlarni kamaytiradi.

Dikain sirt anesteziyasi uchun qo’llaniladi. Mahalliy anestetiklar ta’sirida asab uchlari va asabning o’zida ionlarni membrana orqali o’tishini va asab impulslarini tarqatuvchi elektrokimyoviy jarayonlar to’xtaydi. Sezgir asablarning uch sohasi samarali tormozlanishni amalga oshiruvchi sinergetik ta’sirli mediator retseptorlar ta’siri ostida bo’ladi. Ma’lumki, gistaminga qarshi vositalar (dimedrol), *m*-xolinoblokatorlar (atropin) va adrenalin ishtirokida mahalliy anestezirlovchi ta’sir kuchayadi.


Dikain *p*-aminobenzoy kislotaning (*p*-butilaminobenzoy kislota gidroxloridining  $\beta$ -dimetilaminoetyl efiri) murakkab efirlari sinfiga kiradi [8].




Anesteziofor guruh sifatida dialkilaminoatsetanilid guruh xizmat qiladi.  $\tilde{N}^1$  va  $N^2$  atomlar orasidagi masofa dikain molekulasi retseptor bilan dipol-dipol va ion ta’sirlashuvi yordamidagi ikki nuqtali kontaktlashishini ta’minlaydi. Dikain molekulasi strukturasiga biogen modda kolamin kiradi, uning hosilalari gistaminga qarshi effektga ega. Dikain anestezin va novokainidan faolroq, ammo toksikligi ham bir necha marta yuqori. Uni asosan ko’z va otrinolaringologik amaliyotda ishlatajdarilar.

Keyingi taxlil olib borish uchun kompyuter taxliliga toksikligini pasaytirishga va anestetik xossalalarini saqlash yoki kuchaytirishga imkon beruvchi bir nechta yangi strukturalar taklif qilindi.


Benzol xalqasiga karboksil guruhni kiritish va dimetilaminoguruhnini farmakofaol dietilaninoguruhga almashtirilishi birikmaning toksikligini pasaytiradi, antigistamin fragment - dietilaminoetanol ajralishi natijasida murakkab efir bog’ gidrolizi osonlashtiriladi.




Dikain strukturasidagi alifatik radikal *n*-butil farmakologik effektni kuchaytiradi. Uni adrenalin fragmentga almashtirish anestezirlovchi ta’sirni kuchayishiga olib keladi.



Hozirgacha ma'lumki, biologik sistemalar uchun yassi xalqalar orasida farq bo'lmaydi, shuning uchun *n*-aminobenzoy kislotaning aromatik asosini nikotin (yoki izonikotin) kislotaga almashtirish molekulaning qutbliligini o'zgartiradi, turli o'rinnbosarlarni aromatik xalqaga kiritish osonlashadi. Bundan tashqari, nikotin kislotaning aminohosilalari markaziy asab sistemasining stimulyatorlari hisoblanadi.



Samarali anestetiklardan biri bo'lgan promedol o'z strukturasida aromatik piridin xalqasi o'rniga piperidin xalqa tutadi, bu esa dikain molekulasini modifikatsiyalash usullaridan biri hisoblanadi.



#### Foydalanimagan adabiyotlar:

1. Кукес В. Г., Стародубцева А. К. Фармакология и фармакотерапия. - М.: ГЭОТАР – МЕД, 2004.
2. Беликов В. Г. Фармацевтическая химия. – М.: Высшая школа, 1985
3. Харкевич Д. А. Фармакология, четвертое издание, Москва, 1993.



## ИССЛЕДОВАНИЕ УПАРКИ МАТОЧНЫХ РАСТВОРОВ, ОБРАЗУЮЩИЙСЯ ПРИ ПОЛУЧЕНИЯ НИТРАТА КАЛИЯ КОНВЕРСЕЙ НИТРАТА МАГНИЯ

Тургунова Р.Ш., Закирова Н.Р., Эркаев А.У.,  
Тоиров З.К., Кучаров Б.Х., Алламуратова А.

**Аннотация:** В данной работе приведены данные процесса упарки маточных растворов, образующийся при получения нитрата калия конверсей нитрата магния. Полученные результаты показали, что с повышением соотношения ПМР: KCl и степени упарки до 15 и 25% выход твёрдой фазы увеличивается от 7,35 до 2,54 % соответственно, т.е. с повышением степени упарки на 10% выход твёрдой фазы увеличивается в 3,85 раза при соотношениях ПМР: KCl =20,0:1.

**Ключевые слова:** нитрат магния, упарка, фильтрация, система, удобрение, анализ, соотношение, фаза, нитрат калия, метод.

**Введение.** Республика располагает мощной индустрией для производства минеральных удобрений. С вводом второй очереди Дехканабадского калийного завода страна обеспечила потребности в калийных удобрениях и экспортирует свою продукцию за пределы республики. Однако, выпускаемая заводом продукция – хлористый калий не пригоден при выращивании хлорофобных растений и получения бесхлорных, водорастворимых NPK удобрений. Среди бесхлорных калийных удобрений большим спросом пользуются нитрат, сульфат и фосфаты калия. Эти удобрения не содержат хлора, являются полностью растворимыми в воде и пригодны для возделывания овощей, фруктов, бахчевых, винограда, цитрусовых методом капельного орошения, гидропоники и в закрытом грунте. Капельное орошение и тепличные хозяйства в республике развиваются быстрыми темпами. Капельный полив и гидропоника позволяют экономить воду и доставлять минеральные удобрения, микроэлементы и другие необходимые для роста и развития растений питательные элементы в зону питания корневой системы в четком соответствии с ежесуточными потреблениями. Крупные агропромышленные и фермерские хозяйства завозят бесхлорные калийные удобрения и водорастворимые NPK удобрения в большом количестве из-за рубежа.

На основании анализа диаграммы растворимости данной системы выявлены следующие интервалы варьирования основных технологических параметров: соотношение Cl/Mg =2,02-3,0:1 продолжительность конверсии-1-40 мин; температура кристаллизации–5-20°C, продолжительность кристаллизации – 15-30 мин.

Экспериментальными исследованиями в пределах выбранных интервалов установлены следующие оптимальные технологические параметры процесса: соотношение Cl/Mg =2,58:1, продолжительность конверсии - 2-3 мин, температура процесса конверсии 90-100°C, температура и продолжительность кристаллизации - 5-10 °C и 15-30мин соответственно.

Определено, что при этом выход нитрата калия колеблется от 60,45 до 98,85%, при возвращении маточных растворов в голову процесса.

В дальнейшем изучалось влияние технологических параметров на процесс упарки полученных первичных маточных растворов, образующихся в результате отделения нитрата калия после его кристаллизации при 20 °C.

Полученный раствор имел следующий ионный состав (экв.%): 1,675K<sup>+</sup>; 6,670Mg<sup>2+</sup>; 15,30Cl<sup>-</sup>; 9,65NO<sub>3</sub><sup>-</sup>.

Норма хлорида калия было равно 75%, поэтому состав маточного раствора близко к составу E<sub>2</sub>. Как показывает теоретический анализ диаграммы системы  $2\text{K}^+, \text{Mg}^{2+} // 2\text{Cl}^-, 2\text{NO}_3^- - \text{H}_2\text{O}$  и его составной части  $\text{Mg}^{2+} // 2\text{Cl}^-, 2\text{NO}_3^- - \text{H}_2\text{O}$  при упарке маточного раствора в изученных интервалах варьирования параметров происходит совместная кристаллизация хлоридов и нитратов магния. Поэтому с целью уменьшения содержания нитратных ионов в жидкой фазе проводили вторую стадию конверсии при условии образования маточного раствора близкого по составу к figurativной точке E<sub>1</sub>.

Для предотвращения совместной кристаллизации, как показывает анализ диаграммы, перед упаркой первичного маточного раствора необходимо добавлять в него определенное количество хлорида калия .



В связи с этим было изучено влияние соотношения первичный маточный раствор: хлорида калия (ПМР:KCl) и степени упарки (таблица 1).

Как показывают данные таблицы 1 на состав твердой и жидкой фазы сильно влияют соотношение ПМР: KCl и степень упарки.

Полученные результаты показали, что с повышением соотношения ПМР: KCl и степени упарки до 15 и 25% выход твёрдой фазы увеличивается от 7,35 до 2,54 % соответственно, т.е. с повышением степени упарки на 10% выход твёрдой фазы увеличивается в 3,85 раза при соотношениях ПМР: KCl = 20,0:1.

Для определения морфологии кристаллов и их размеров применяли оптический и сканирующий электронный микроскоп SEM-EVOMA10(Zeiss, Germany). В изученных интервалах варьирования технологических параметров образуются крупные кристаллы нитрата калия длиной 134,99-229,4 мкм, имеющих форму расплавленных рогообразных кусков 3-4 пальчиками (рисунок).

Из рисунка (проба 4) видно, что система содержит кристаллы KCl-6,86%,  $MgCl_2 \cdot 4H_2O$ -12,9 и  $KNO_3$ -80,3%. В пробе 6 содержание нитрата калия составляет более 92%.


Из вышеизложенного вытекает, что для получения нитрата калия из ПМР оптимальными условиями процесса являются: соотношения ПМР: KCl = 6,67:1, степень упарки - не менее 15%, которые обеспечивают образование нитрата калия количестве не менее 17,4% относительно исходной массы ПМР и хлорида калия, а также образуется вторичный маточный раствор с низким содержанием ионов калия и нитратов, Которые в дальнейшем можно переработать в кристаллогидраты хлорида магния.

**Таблица-1**  
**Иследование процесса упарки маточных растворов, образующихся при получении нитрата калия**


№	Соотношение ПМР:KCl	Степен упарки %	$\rho$ , г/см <sup>3</sup> при 100°C	Степен упарки Ж:Т 20°C	Влажность, %	Выход твёрдой фазы относительно исходной смеси, %
1	20:1	0	1350	-	-	-
2	20:1	10	1391	-	-	-
3	20:1	15	1440	10,87:1	13,2	7,15
4	20:1	20	1461	1,88:1	5,27	27,54
5	10:1	0	1366	15,3:1	16,76	6,02
6	10:1	10	1428	10,06:1	4,8	8,08
7	10:1	15	1459	5,5:1	4,8	14,4
8	10:1	20	1506	1:1	4,4	32,7
9	6,67:1	0	1394	6,57:1	9,17	13,17
10	6,67:1	10	1460	4,7:1	6,4	15,2
11	6,67:1	15	1476	3,8:1	5,38	17,4
12	6,67:1	20	1524	0,73:1	5,15	44,7



## Проба №4



## Проба №6





<b>Index Amount (%) Name Formula sum</b> A 92.6 Niter K N O <sub>3</sub> B 7.4 MgCl <sub>2</sub> 31.0 Unidentified peak area <i>Amounts calculated by RIR (Reference Intensity Ratio) method</i>	<b>Element Amount (weight %)</b> O 44.0%(*) K 35.8% N 12.8%(*) Cl 5.5% Mg 1.9% *LE (sum) 56.8%
--	--

### Проба №9




Рисунок. Рентгенограммы осадков образующихся при упакки ПМР в присутствии хлорида калия. Номера соответствуют номерам таблицы



## SPIRT ISHLAB CHIQARISHGA IQTISOSLASHGAN ZAVODLAR VA ULARNING XOMASHYO TURLARI

Tursunova Mahbuba Xurramovna

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani

5 – mактаб kimyo fани о’qituvchisi

+99891 136 0181

**Annotatsiya:** ushbu maqolada spirit ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavodlar va ularning xomashyo turlari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** FXZFS – Farg’ona furan birikmali kimyosi zavodi, Andijon gidroliz zavodi, Qo’qon spirit zavodi, Yangiyo’l bioximiya kombinasi.

To’yingan bir atomli spirtlarning gamologik qatori. Assotsiyatsiyaning spirtlar fizik xossalariga ta’siri. Tabiatda uchrashi. Olinishi: olefinlarni gidratlash, galoid xosilalarni gidrolizlash karbonil gruppali brikmalarni qaytarish va magniy organik brikmalardan sintez orqali olish reaksiyalari. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarning xossalarini solishtirish.

Molekulasida kislород tutgan organik birikmalar quyidagilardan iborat:

1) gidroksil guruhi bo’lgan – oksibirikmalar; a) spirtlar, b) fenollar Ar-OH.

2) karbonil guruhi bo’lgan birikmalar; a) aldegidlar, b) ketonlar.

3) karboksil guruhi bo’lgan birikmalar; karbon kislotalar va ularning hosilalari.

To’yingan bir atomli spirtlar deb – (alkanollar yoki alkagollar) to’yingan uglevodorodlar molekulasida bir yoki bir necha vodorod atomlarini gidroksil guruhiga almashinishidan hosil bo’lgan birikmalarga aytildi.

Gidroksil guruhining soniga qarab:

1) bir atomli spirtlar,  $R - OH$ .

2) ikki atomli spirtlar,  $R - (OH)_2$ .

3) uch atomli spirtlar,  $R - (OH)_3$ .

4) ko’p atomli spirtlar to’rt va undan ortiq gidroksil guruhiga ega bo’lgan spirtlar.

To’yingan uglevodorod molekulasidagi bitta vodorod atomining gidroksil guruhiga o’rin almashinishidan hosil bo’lgan birikmalarga *to’yingan bir atomli spirtlar* deyiladi.

O’zbekiston Respublikasida sanoatning turli jabhalari qatorida gidroliz va mikrobiologiya sanoati ham juda keskin, jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda.

Spirit ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavodlarda o’simliklar mahsulotlarini to’g’ridan-to’g’ri gidrolizlash yo’li bilan va uglevod saqllovchi yani tarkibida ko’p miqdorda uglevodlar bo’lgan moddalarni bijg’itish yo’li orqali etil spirti ishlab chiqarilmoqda. Tabiiyki turli hil usullar bilan olingan etil spirtining tozalik darajasi ham turlichcha bo’ladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarilgan etanolning tozalik darajasiga va qanday xomashyodan olinganligiga qarab sanoatning turli tarmoqlarida (oziq-ovqat sanoatida, tibbiyotda, texnikada) turli maqsadlarda ishlataladi.

O’zbekistonda spirit ishlab chiqarishga iqtisoslashgan zavodlar quyidagilardir:

❖ FXZFS – Farg’ona furan birikmali kimyosi zavodi

❖ Andijon gidroliz zavodi

❖ Qo’qon spirit zavodi

❖ Yangiyo’l bioximiya kombinasi

Farg’ona furan birikmali kimyo zavodi hamda Andijon gidroliz zavodida texnik gidroliz spirti ishlab chiqariladi. Qo’qon spirit zavodi va Yangiyo’l bioximiya kombinatida oziq-ovqat mahsulotlaridan, hususan bug’doy va arpa donidan spirit ishlab chiqarilmoqda. Quyidagi jadvalda turli hildagi don mahsulotlaridan namunalar keltirilgan va ular tarkibidagi oqsil miqdori keltirilgan.



**1-jadval**

**Turli hildagi don mahsulotlari tarkibidagi oqsil miqdori, %**

O'simlik doni	Albuminlar	Globulinlar	Prolaminlar	Glutaminlar
Bug'doy	4	8	40	48
Roj	28	22	32	18
Arpa	12	30	35	23
Suli	20	20	15	45
Makkajoxori	0,5	20	40	30
Tariq	10	6	60	10

Bug'doy doni tarkibida kraxmalning miqdori 48-57% ni, roj o'simligida esa 46-53 % ni, arpa donida 43-55 %, sulida 34-40 %, tariqda 52-60 % va makkajo'xori donida esa 61-70 % ni tashkil qiladi.

Spirt ishlab chiqarishda ishlatiladigan drojjalarini o'stirish uchun qo'shimcha homashyo mahsulotlari sifatida  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{Ca}(\text{OCl})_2$  va boshqa moddalar qo'llaniladi.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. M.Mirkomilova "Analitik kimyo". Toshkent "O'zbekiston", 2010, 463b.
2. Abdusamatov, R.Mirzayev, R.Ziyayev "Organik kimyo". Toshkent "O'zbekiston", 2012, 237 b.
3. Asqarov, M.Ashuraliyeva "Kimyoviy elementlar inson organizmida"



## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ХИМИИ

Куралова Клара Хамзаевна

Юкоричирчикский район, город Тошкент

Школа 32 учитель химии

**Аннотация:** В статье использование интерактивных методов обучения на уроках химии.

**Ключевые слова:** метод, методами обучения, интерактивные

Слово «метод» в переводе с греческого означает «исследование, способ, путь к достижению цели».

Под методами обучения следует понимать способы обучающей работы учителя и организации учебно-познавательной деятельности учащихся по решению различных дидактических задач, направленных на овладение изучаемым материалом.


**ПАССИВНЫЕ** - это форма взаимодействия учащихся и учителя, в которой учитель является основным действующим лицом и управляет ходом урока, а учащиеся – пассивными слушателями, подчиненными директивам учителя.

**АКТИВНЫЕ** - это форма взаимодействия учащихся и учителя, при которой учитель и учащиеся взаимодействуют друг с другом в ходе урока и учащиеся здесь не пассивные слушатели, а активные участники урока.

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ** - ("Inter" - это взаимный, "act" - действовать) – означает взаимодействовать, находится в режиме беседы, диалога с кем-либо. Другими словами, в отличие от активных методов, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие учеников не только с учителем, но и друг с другом и на доминирование активности учащихся в процессе обучения.

Исследования, проведенные в 80-х годах Национальным тренинговым центром (США) показали, что интерактивные методы позволяют резко увеличить процент усвоения материала.

### «ПИРАМИДА ОБУЧЕНИЯ»



**Индивидуальный устный опрос** позволяет проанализировать знания какого-то конкретного учащегося. Проводить подобный опрос можно с использованием учебника,



планов, схем. Кроме того, для создания у учащегося новой мотивационной направленности могут быть широко использованы занимательные дидактические игры типа "крестики-нолики", "третий лишний", "третий - не лишний", и др.

Особый интерес вызывают вопросы типа:

- ❖ «Какая связь между свеклой и пирожным?»,
- ❖ «Почему больным на сахарный диабет инсулин вводят в кровь, а не дают с пищей?»,
- ❖ «Правильное ли утверждение, что хлеб, сыр, колбаса, сахар являются искусственной пищей» (11 класс, тема «Углеводы»),
- ❖ «Правда ли, что маргарин получают из нефти?» (10 класс),
- ❖ «Как вы понимаете слова Д. И. Менделеева, что топить можно и асигнациями?» (10 класс).

При задании таких вопросов тут же *начинается диалог* с целью поиска ответа, затем высчитываются возможные варианты ответов; идей, как правило, немного, но всех интересует правильный ответ.

**НАПРИМЕР** при изучении темы «Бытовая химия» может стать поводом для дискуссии, в процессе которой ученик предложат охарактеризовать понятие, используя, к примеру, следующие доводы: облегчает жизнь в быту, вредная для здоровья, опасна для окружающего мира, содержит ядовитые вещества, можно отравиться. На основе предложенных идей можно не только дать толкование термину, но и выдвинуть проблемные вопросы для творческих проектов.

### **Литература:**

1. Вейганд-Хилгетаг “ Методы эксперимента в органической химии” . изд « химия» М. 1969гю 751 стр
2. Ю.М.Шилов, М.И.Тарасенко, Ю.И. Смушкевич П.М. Чукров. Умумий кимё. Тошкент. «Медицина» . 1986 йил.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 21-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000